

QO'G'AY QISHLOG'I SHEVASIGA XOS BA'ZI
SO'ZLARNING SEMANTIK IZOHI

Kobuljonova Gulbahor

filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi

Andijon davlat universiteti

gulbahorkobuljanova-1958@gmail.com

+99891-168-40-17

Turdiyeva Ma'mura Hasanboy qizi

Andijon davlat universiteti magistri

turdiyevamamura7@gmail.com

+99897-000-18-97

Annotatsiya: : maqolada Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani Qo'g'ay qishlog'ida yashovchi aholi shevasining semantik izohi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar:til, sheva, dialekt, lahja, o'zbek tili, leksik xususiyat, semantik izoh, termin

Annotation: : the article talks about the lexical features of the dialect of the population living in the village of Kogay, Uchkurgan district, Namangan region.

Key words: language, dialect, dialect, dialect, Uzbek language, lexical feature, semantic explanation, term

Bugungi kunga kelib, yurtimizda har bir sohaga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Tilshunoslikning eng asosiy tarmog'i hisoblangan shevashunoslik sohasi ham bundan mustasno emas. Dunyoda juda ko'plab tillar yo'qolib borayotgan bir zamonda, bizning o'zbek tilimiz yil sayin rivojlanib bormoqda. Bizning o'zbek tilimiz qadimdan dunyodagi eng boy tillardan biri hisoblangan. O'zbek tilini boyitib turgan, uning boqiyiligini ta'minlab turgan sheva va lahjalarimiz bor. O'zbek tilining yanada yuksalishi va shevalarni yanada izchil va chuqur o'rganishga qaratilayotgan e'tibor natijasida shevashunoslik sohasi taraqqiy etib bormoqda. Shevashunoslik sohasi taraqqiyotini bardavom bo'lishi uchun davlat va prezidentimiz tomonidan berilgan alohida e'tibor va uning ustida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining yangi bosqichga ko'tarilishi turtki bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida’gi PF-6084-sonli Farmonlarida davlat tilini har tomonlama rivojlantirish bilan bir qatorda o‘zbek tilining qadimiy va boy sheva va dialektlarni chuqur o‘rganish, mintaqadagi boshqa tillarga o‘zaro hurmat-e‘tiborda bo‘lish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratilgan [1].

Mamlakatimizda fan-texnikaning, madaniy hayotning shiddat bilan yuksalishi va taraqqiyoti adabiy til mavqeini yanada kuchaytirish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Buning natijasida mahalliy til – shevalarning fonetik, leksik va grammatik tarkibida o‘zgarishlar, torayishlar sodir bo‘lmoqda. Shuning uchun dialekt va shevalarga xos fonetik-fonologik xususiyatlarni qayd qilish, ularning barcha lingvistik jihatlarini chuqur tavsifiy-qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, mental tamoyillar asosida atroflicha o‘rganish, tadqiq qilish hozirgi zamon o‘zbek tili taraqqiyot yo‘lini va shu til egasi bo‘lgan xalqlar tarixi, tili, etnografiyasini o‘rganishda muhim nazariy va amaliy ma‘lumotlar beradi. Darhaqiqat, til har qanday millatning jonli, tirik tarixidir[2]. Xalqning jonli tili – shevalarini o‘rganish, bir tilning o‘ziga xos boshqa tillarda uchramaydigan jihatlari yoki ularni bir-biri bilan tutashtiruvchi nuqtalarini topish tilning ontologik tabiatini ochib berishga yordam beradi[3]. O‘zbek adabiy tili taraqqiyotida ichki omil sifatida belgilangan hamda uning takomillashishida alohida o‘rin tutuvchi o‘zbek shevalarning lisoniy xususiyatlarini ilmiy o‘rganish har qanday me‘yorlashgan adabiy tilning barcha sathlaridagi nazariy va amaliy qonuniyatlarini to‘laqonli aniqlash, ular haqidagi mukammal va aniq qoida, ta‘rif, xulosalar chiqarishda asosiy va muhim vazifalarni bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan o‘zbek shevalari sistemasida Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani Qo‘g‘ay qishlog‘i shevalarining tutgan o‘rnini lisoniy jarayonlar orqali belgilash hamda ular orqali asosli xulosa va to‘xtamlarga kelish mumkin.

Namangan viloyatida joylashgan bu qishloq o‘z hududining kattaligi, turli millat vakillari mavjudligi, aholi sonining ko‘pligi va eng asosiysi, shevasi bilan Namangan shahar shevasidan butkul boshqachaligi bilan alohida ajralib turadi. Qo‘g‘ay hududi eng katta va asosiy hududlardan biri bo‘lganligi, aholisining shevasi rang-barangligi kishi e‘tiborini bevosita o‘ziga jalb qiladi. Masalan:

Buvak-[yangi tug‘ilgan va tug‘ilganiga ikki yoki 3 oy bo‘lgan chaqaloqlarga nisbatan ishlatiladi] Bu so‘z asosan yoshi katta insonlar orasida faol qo‘llanadi. Sen ikkinchi oylik buvaklik vaqtingda akang urushga ketgan edi. Qo‘shnimizning buvagi rosa yig‘loqi chiqdi-da

Mardak -[makka donasi sitib olingan so‘ta]

Qish chog‘i mana shu mardaklar guvillab yonadi-da.

Qo‘limdagi mardakni senga qarab otaman hozir.

Patak-[Bahor,yoz, kuz, qish oylarida bo‘yicha kiyish uchun oyoqqa bog‘lab olingan uzun latta]

Patakларingni yechib bersang, tog‘oraga solaman-qo‘yaman.

Chilabzar-[qayirib, yig'ishtiriladigan kichik pichoq, cho'ntak uchun moslangan pichoq]

Cho'ntagingdan chilabzaringni holda, mana bularni tezda archib tashla.

Hoy, bola.Cho'ntagingda chilabzar solib, olib yurmagin tag'in

Bolish-[ichiga paxta solib, tikiladi. Kishilar suysnishi uchun, boshini qoyish uchun moljallangan buyum.Adabiy tildagi varianti -yostiq]

Bolishimni uzatib yubor.

Bolishlarni paxtasidan ajratish kerak.

Shoti-[Yuqoriga chiqish uchun mo'ljallangan moslama.Adabiy tildagi varianti-narvon]

Shotini buyoqqa qo'y. Tomga chiqish osonroq bo'ladi.

Qo'shning shotisini olib chiqib berdingmi? Bermay qo'ymasin tag'in.

Aba-[insonni tug'ib, voyaga yetkazgan shaxs, ya'ni ona].

Mening abam dunyodagi eng chiroyli va eng mehribon ayoldir.

Shaharga ketayotgan bo'lsa abangga ayt, meni ham chaqirvolsin.

Opa-[bu termin ham ona ma'nosida qo'llangan. Ammo hozirgi kunda qo'llanish doirasi nihoyatda cheklangan termin]

Eslayman, yoshligimda mana shu katta ko'prikdan opam meni yelkasiga opichlab, o'tkazib qo'yardi.

Ova-[amakiga nisbatan qo'llanadi. Asosan, qo'shni qishloq bo'lmish Qayqi qishlog'idan ko'chib kelganlarning nutqida uchraydi

Mening ovam bir katta firmaning rahbari.

Ovangga aytaman, ketishda seni maktabga olib ketadi.

Chilapchin[mehmon kelganda qo'l yuvish uchun tutiladigan suv idish]

Mehmonlar kelyapti, chilapchinlarni tayyorlanglar.

Pilla-[buzov yangi tug'ilganda sog'iladigan sut]

-Hali sut bo'lmadimi, xola?

-Yo'q, hozircha sigirimiz pilla beryapti

Mallanoy-[Xamirni yupqa qilib, qatini chiqargan holda,dumaloq shaklda yog'da pishirish.Bu asosan to'-hashamlarda odamlar yeyish uchun dasturxonga tortiladi.]

Qani, issiqqina mallanoylarni ham dasturxonga tortinglarchi.Hali zamon odamlar kelib qoladi.

Cho'zma-[mallanoydan ham kichikroq va yuqaroq shaklda tayyorlangan yegulik. Bu to'y-hashamlar uchun emas,oila davrasida tayyorlanadi]

Bugun nonning o'rniga cho'zma qilib qo'yaqolaylik, nima deysiz?!

Acha-[Yoshi bir joyga borib qolgan, yoshi katta onaxonlarga,buvilarga nisbatan qo'llanadi]

Bugun katta uyga borib, achanglardan bir xabar olib kelgin

Anna-[bu leksema ham buvi ma'nosini beradi]

Bugun biznika annang mehmoniga keladi.Uzoqqa ketib qolmagin.

Opodda[yoshi ulug', ancha keksayib qolgan buvalarga nisbatan ishlatiladi]

Sening shunday darajaga erishishingda opoddangning beminnat xizmati nihoyatda katta.Shuni unutma bolam!

Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, acha, anna, opodda terminlari aynan hozirgi kunda qo'llanish doirasi cheklanib bormoqda.Bu terminlar taxminan, o'n-o'n besh yil oldin ham juda faol edi.Hozirgi kunda bu terminlar o'rniga buvi, buvijon, bobo, bobojon, buva, buvajon terminlari faol qo'llanmoqda.

Jigon-[otning bo'g'zidan bog'langan arqon]

Bu otning jigonidan qattiqroq tortsang, keyin senga bo'ysunadi. Bu juda qaysar ot.

Objuvoz-[Sholini tegirmonga solib, guruch holiga keltirish]

Objuvoz guruchdan qilingan oshning mazasi jaa boshqacha bo'ladimi.

Patnis-[to'y-hashamlarda, mehmonlar kelgan vaqtda narsa tashish uchun mo'ljallangan buyum]

Mana bularning hammasini patnisga solgin, tezroq va osonroq yetib borasan. Yiqilmasdan, ehtiyot bo'lib olib ketgin.

Juvon-[yoshi o'rta yoshlarda bo'lgan, nisbatan kattaroq ayol]

Sizni bugun yoshi o'ttiz-o'ttiz besh yoshlardagi bir juvon so'rab keldi.

Demak, bu hudud aholi vakillari nutqida o'ziga xos bir qancha dialektal leksemalar mavjud ekanligini ko'rdik. Eng e'tiborli tomoni shundaki, ayrim leksemalar xalq orasida hali ham iste'molda, ayrim leksemalarning esa iste'mol doirasi cheklanib bormoqda[acha, ena, opodda, chilapzar kabi]. Ayrim leksemalar esa iste'mol doirasidan butunlay chiqib ketgan[buvak, mardak, opa kabi]. Faqat yoshi ulug' insonlarnigina nutqida saqlanib qolgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, shevalar adabiy tilni boyitib boruvchi eng asosiy ichki manbaa bo'lib xizmat qiladi va tilning taraqqiy etib borishida tayanch vazifasini o'taydi. Yuqorida o'rganilishga asos bo'lgan ma'lum shevaga oid so'zlar, nafaqat o'zi foydalaniladigan hudud vakillari uchun, balki boshqa hudud vakillari uchun ham tushunarli bo'lib bormoqda. Qo'g'ay hududiga oid so'zlar tarixiy-etimologik nuqtayi nazaridan, areal lingvistik nuqtayi nazaridan dialektologiya sohasining yanada rivoji uchun, yuksalishi uchun va yanada takomillashishi uchun mustahkam manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. lex.uz.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim.
3. Дарвишев И. Ареал тилшунослик: Жанубий-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. – Тошкент: Наврўз нашриёти.